



THE INTERNATIONAL LEGAL NEXUS BETWEEN CLIMATE CHANGE AND HUMAN RIGHTS

Kholboev Umarjon Fakhriddin ogli

Graduate student, The University of World Economy and Diplomacy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20232668>

ARTICLE INFO

Received: 09th May 2026

Accepted: 15th May 2026

Online: 16th May 2026

KEYWORDS

Climate change, human rights, international law, Paris Agreement, ICCPR, ICESCR, state obligations, climate litigation, International Court of Justice, legal nexus.

ABSTRACT

This article analyses the relationship between climate change and international human rights law from an international legal perspective. The study examines the impact of climate change on fundamental rights, including the rights to life, health, food, water and culture, and describes the legal obligations of states under existing international treaties. Using legal analysis, comparative and systematic methods, key international instruments have been examined as primary sources, including the 1966 International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR), the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (ICESCR), and the 2015 Paris Agreement. The findings demonstrate that existing international human rights law provides a sufficient normative basis for holding states accountable in the field of climate change. In particular, the cases of “Verein KlimaSeniorinnen Schweiz v. Switzerland” (2024) and “Daniel Billy v. Australia” (2022), as well as the International Court of Justice Advisory Opinion of 2025, have consolidated this nexus through judicial practice. At the same time, difficulties in establishing causal links, weak enforcement mechanisms, and the limited extraterritorial application of obligations have been identified as the principal shortcomings of the existing system. The article calls upon the international community to develop new legally binding enforcement mechanisms to protect individuals adversely affected by climate change.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИЗМЕНЕНИЕМ КЛИМАТА И ПРАВАМИ ЧЕЛОВЕКА

Холбоев Умаржон Фахриддин угли

магистрант Университета мировой экономики и дипломатии

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20232668>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 09th May 2026
Accepted: 15th May 2026
Online: 16th May 2026

KEYWORDS

Изменение климата,
права человека,
международное право,
Парижское соглашение,
МПГПП, МПЭСКП,
обязательства
государств,
климатические
судебные
разбирательства,
Международный суд
ООН, правовая
взаимосвязь

Настоящая статья посвящена анализу взаимосвязи между изменением климата и международным правом в области прав человека с точки зрения международного права. В исследовании рассматривается влияние изменения климата на такие фундаментальные права, как право на жизнь, здоровье, питание, воду и культуру, а также описываются правовые обязательства государств в рамках действующих международных договоров. С применением методов правового анализа, сравнительного и системного анализа в качестве первичных источников исследованы Международный пакт о гражданских и политических правах (МПГПП) 1966 года, Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах (МПЭСКП), а также Парижское соглашение 2015 года. Результаты исследования показывают, что существующее международное право в области прав человека располагает достаточной нормативной базой для привлечения государств к ответственности в климатической сфере. В частности, дела "Verein KlimaSeniorinnen Schweiz против Швейцарии" (2024) и "Дэниел Билли против Австралии" (2022), а также консультативное заключение Международного суда ООН 2025 года закрепили эту взаимосвязь в судебной практике. Вместе с тем в качестве основных недостатков существующей системы выявлены трудности с доказыванием причинно-следственной связи, слабость механизмов исполнения и ограниченное применение обязательств за пределами государственной территории. Статья призывает международное сообщество разработать новые правовые механизмы с обязательной силой исполнения для защиты лиц, пострадавших от изменения климата.

**IQLIM O'ZGARISHI VA INSON HUQUQLARI O'RTASIDAGI XALQARO-
HUQUQIY BOG'LIQLIK**

Xolboyev Umarjon Faxriddin o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti magistratura bosqichi talabasi,

e-mail: umarkholboev023@gmail.com

Tel raqam: +998919103301

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20232668>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 09th May 2026
Accepted: 15th May 2026
Online: 16th May 2026

KEYWORDS

Iqlim o'zgarishi, inson huquqlari, xalqaro huquq, Parij bitimi, ICCPR, ICESCR, davlat majburiyatlari, iqlim litigatsiyasi, Xalqaro Sud, huquqiy bog'liqlik.

Mazkur maqola iqlim o'zgarishi va xalqaro inson huquqlari huquqi o'rtasidagi bog'liqlikni xalqaro-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqotda iqlim o'zgarishining hayot, sog'liq, oziq-ovqat, suv va madaniyat kabi fundamental huquqlarga ta'siri o'rganilgan hamda mavjud xalqaro shartnomalar doirasida davlatlarning huquqiy majburiyatlari tavsiflab berilgan. Huquqiy tahlil, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan holda, 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR) va 2015 yilgi Parij bitimi kabi asosiy xalqaro hujjatlar birlamchi manba sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mavjud xalqaro inson huquqlari huquqi iqlim sohasida davlatlarni mas'ul qilish uchun yetarli me'yoriy asosga ega. Xususan, "Verein KlimaSeniorinnen Schweiz - Shveysariya" (2024) va "Daniel Billy - Avstraliya" (2022) ishlari, shuningdek Xalqaro Sudning 2025 yilgi maslahat xulosasi bu bog'liqlikni sud amaliyoti orqali mustahkamlagan. Shu bilan birga, sababiylik aloqasini isbotlashdagi qiyinchiliklar, ijro mexanizmlarining zaifligi va hududdan tashqarida majburiyatlarning cheklangan qo'llanilishi mavjud tizimning asosiy kamchiliklari sifatida aniqlangan. Maqola xalqaro hamjamiyatni iqlim o'zgarishidan zarar ko'rgan shaxslarga majburiy ijro kafolatlaydigan yangi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqishga chaqiradi.

Kirish

Insoniyat tarixida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat hech qachon bugungicha ziddiyatli bo'lmagan. Sanoat inqilobi boshlanganidan beri atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdori misli ko'rilmagan sur'atda o'sib, Yerning iqlim tizimini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Haroratning ko'tarilishi, muzliklarning erishi, dengiz sathining ortishi va ekstremal ob-havo hodisalarining tez-tez takrorlanishi - bularning barchasi endi faqat ekologik muammo emas, balki

millionlab odamlarning kundalik hayotiga, xavfsizligiga va kelajagiga bevosita ta'sir etayotgan ijtimoiy-huquqiy muammodir. Xalqaro **Mehnat Tashkiloti** va **BMT** ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi tufayli 2050-yilga kelib 216 milliondan ortiq kishi o'z yurtini tark etishga majbur bo'lishi mumkin.

Aynan shu nuqtada iqlim o'zgarishi xalqaro inson huquqlari huquqi bilan keskin tutashadi. Masalaning huquqiy mohiyati shundan iboratki, insonlarning butun dunyo e'tirof etadigan hayot huquqi, sog'liq huquqi, oziq-ovqat



huquqi, suv huquqi va munosib boshpanaga ega bo'lish huquqi kabi fundamental huquqlar iqlim o'zgarishining bevosita oqibatlaridan zarar ko'rmoqda. Bu esa davlatlarning xalqaro shartnomaviy majburiyatlarini yangicha tahlil qilishni taqozo etadi. 2015 - yilda qabul qilingan *Paris bitimining* muqaddimasida birinchi marta rasmiy ravishda davlatlar iqlim sohasidagi harakatlarida inson huquqlarini hurmat etib, ularni rivojlantirishi zarurligi mustahkamlandi¹. Bu xalqaro atrof-muhit shartnomalari tarixida misli ko'rilmagan qadam edi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, iqlim huquqi va inson huquqlari huquqi bir-biridan uzoq vaqt mustaqil rivojlangan, ammo hozir bu ikkala tizimning o'zaro bog'liqligi yanada aniqroq tus olmoqda. *Xalqaro Sud* 2025 - yil iyulida tarixiy maslahat xulosasida davlatlarning iqlim bilan bog'liq majburiyatlarini inson huquqlari bilan chambarchas bog'lab talqin etdi. Ammo shu bilan birga, amalda bu bog'liqlikni huquqiy mexanizmlarga tatbiq etish hali ham murakkab bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bu sohadagi ilmiy munozara hali ham davom etmoqda va olimlar orasida yagona yondashuv yo'q. *John H. Knox* o'zining fundamental maqolasida inson huquqlari huquqi iqlim o'zgarishiga nisbatan davlatlarga to'rtta asosiy majburiyat yuklashini asoslaydi: iqlim o'zgarishi

huquqlarni buzadi; davlatlar bunga sababchi bo'lmasalar ham, uni bartaraf etish majburiyatini o'z zimmlariga olishlari shart; davlatlarning iqlim bo'yicha harakatlari o'z-o'zicha ham huquqlarni cheklashi mumkin va xalqaro hamkorlik majburiyati iqlim huquqshunosligi bilan ko'prik vazifasini bajarishi lozim². *Knox* yondashuvi optimistik xarakter kasb etadi. U mavjud inson huquqlari doktrinasi, xususan hamkorlik majburiyati orqali iqlim muammosini huquqiy tartibga solish mumkin deb hisoblaydi. a'

Biroq *Rajamani* bunday qarashga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. U inson huquqlariga asoslangan yondashuvning iqlim muzokaralarida amaliy ta'siri cheklangan ekanligini ko'rsatadi va bu doirani huquqiy majburiyat sifatida qabul qildirishning siyosiy to'siqlarini ta'kidlaydi³. *Rajamanining* fikricha, huquqiy bosimning kuchayishi muzokaralarda muvozanatni buzib, rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini ikkinchi o'ringa surib qo'yishi mumkin. Ya'ni *Rajamani* shuni ta'kidlayaptiki, Iqlim muzokaralarida davlatlar o'rtasida kelishuv topish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar (Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi) asosan ikkita narsani talab qiladi: moliyaviy yordam va texnologiya bilan ta'minlanish ya'ni boy davlatlar ularga iqlim o'zgarishiga moslashishda yordam berishlarini so'raydi.

¹ UNFCCC (2015) "Paris Agreement", FCCC/CP/2015/10/Add.1. Paris: United Nations Framework Convention on Climate Change. https://unfccc.int/sites/default/files/english_paris_agreement.pdf

² Knox, J.H. (2009) 'Climate Change and Human Rights Law', "Virginia Journal of International

Law", 50(1), pp. 163-0218. <https://ssrn.com/abstract=1480120>

³ Rajamani, L. (2010) 'The Increasing Currency and Relevance of Rights-Based Perspectives in the International Negotiations on Climate Change', "Journal of Environmental Law", 22(3), pp. 391-429. <https://doi.org/10.1093/jel/eqq020>



Ammo muzokarlarga “inson huquqlari” aspekti kirib kelsa, gap huquqiy majburiyatlar, javobgarlik, hisobot berish kabi masalalarga ko‘chadi. Bu esa: Boy davlatlarni himoyaga o‘tishga majbur qiladi; muzokaralar texnik-huquqiy bahsga aylanib ketadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng muhim bo‘lgan moliya va texnologiya masalalari ikkinchi o‘ringa surilib qoladi.

Ushbu maqolada esa biz ikkala yondashuvni ham inkor etmagan holda, ularning o‘zaro to‘ldiruvchi jihatlarini ko‘ramiz: Knox asoslagan huquqiy zamin real va muhim, lekin Rajamani ko‘tarayotgan amaliy-siyosiy to‘siqlar ham e‘tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot iqlim o‘zgarishi va inson huquqlari o‘rtasidagi xalqaro-huquqiy bog‘liqlikni tizimli tahlil etishga, mavjud bo‘shliqlarni aniqlashga va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif etishga qaratilgan.

Material va metodlar

Tadqiqotning mazmuni. Mazkur tadqiqot iqlim o‘zgarishi va xalqaro inson huquqlari huquqi o‘rtasidagi bog‘liqlikni xalqaro-huquqiy nuqtai nazardan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida asosan uchta yo‘nalish tahlil etilgan: birinchisi, iqlim o‘zgarishining hayot, sog‘liq, oziq-ovqat, suv va boshpana kabi fundamental huquqlarga ta‘siri; ikkinchisi, mavjud xalqaro shartnomalar - jumladan, 1992-yilgi *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Doiraviy Konvensiyasi* (UNFCCC), 1997 - yilgi *Kioto Protokoli* va 2015-yilgi Parij bitimi - doirasida davlatlarning huquqiy majburiyatlari; uchinchisi esa inson huquqlari

mexanizmlari va iqlim rejimi o‘rtasidagi huquqiy bo‘shliqlar hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari.

Metodlar va metodologiya. Tadqiqotda bir nechta ilmiy metod qo‘llanilgan. Asosiy metod sifatida **huquqiy tahlil metodi** tanlangan bo‘lib, u xalqaro shartnomalar, BMT organlari qarorlari va xalqaro sud amaliyotini birlamchi manba sifatida o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, **qiyosiy metod** orqali iqlim huquqi va inson huquqlari tizimlarining o‘zaro munosabati taqqoslab tekshirilgan. **Tizimli tahlil metodi** esa mavjud xalqaro huquqiy mexanizmlarni yaxlit bir tizim sifatida baholash imkonini bergan. Tadqiqot obyektlari sifatida xalqaro shartnomalar matni, BMT inson huquqlari organlarining hisobotlari, xalqaro sud va tribunal qarorlari, shuningdek soha bo‘yicha yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tanlangan.

Tadqiqot natijalari

Iqlim o‘zgarishi va inson huquqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni xalqaro-huquqiy jihatdan tahlil etish uchun avvalo bu bog‘liqlikning qaysi huquqiy asoslarda qurilganini aniqlash zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bu bog‘liqlik uchta o‘zaro aloqador qatlamdan tashkil topgan: birinchisi - iqlim o‘zgarishining bevosita ta‘sir etadigan huquqlar doirasi; ikkinchisi - mavjud xalqaro shartnomalardagi davlat majburiyatlari; uchinchisi esa - huquqiy mexanizmlar va ularning amaliy samaradorligi.

Xavf ostidagi huquqlar doirasi. Xalqaro inson huquqlari huquqining asosiy manbalari - 1966-yilgi *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt* (ICCPR) hamda *Iqtisodiy, ijtimoiy va*



madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR) - iqlim o'zgarishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bir qator huquqlarni himoya qiladi. Jumladan, ICCPRning 6-moddasi hayot huquqini, ICESCR ning 11 va 12-moddalari esa tegishli turmush darajasi huquqi va sog'liq huquqini mustahkamlaydi⁴. Bu huquqlar iqlim o'zgarishining eng birinchi va eng og'ir zarba beradigan sohalaridir: sel, qurg'oqchilik, issiqlik to'loqlari va ekstremal ob-havo hodisalari bevosita hayotga tahdid soladi; qishloq xo'jaligi samaradorligining pasayishi oziq-ovqat xavfsizligini yomonlashtiradi; haroratning ko'tarilishi esa kasalliklarning tarqalishini tezlashtiradi. Bu faqat nazariy xulosa emas. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson Huquqlari bo'yicha Oliy Komissarligi* (OHCHR) 2009-yilgi fundamental hisobotida iqlim o'zgarishining kuzatilayotgan va bashorat qilinayotgan oqibatlarini inson huquqlaridan bahramand bo'lish imkoniyatiga va davlatlarning xalqaro inson huquqlari huquqi doirasidagi majburiyatlariga qanday ta'sir etishini atroflicha tahlil etgan⁵. Hisobot bir muhim fikrni ham qo'shgan: iqlim o'zgarishi o'z-o'zicha aniq bir huquqiy buzilish sifatida kvalifikatsiyalanishi qiyin, chunki sababiy bog'liqlikni isbotlash texnik jihatdan murakkab.

Biroq bu holat davlatlarning majburiyatlarini inkor etmaydi - aksincha, ularni yangicha shakllantiradi.

Davlat majburiyatlarining huquqiy tavsifi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqlim o'zgarishi sohasida davlatlarning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlari uchta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, kamaytirish majburiyati - davlatlar issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirib, boshqa davlatlar aholisining huquqlarini xavf ostiga qo'ymaslikka majburdirlar. Ikkinchidan, moslashishni ta'minlash majburiyati - davlatlar o'z hududidagi aholiga iqlim ta'sirlariga moslashishda yordam berishi shart. Uchinchidan, hamkorlik majburiyati - iqlim o'zgarishi global muammo sifatida hech bir davlat tomonidan yolg'iz hal qilib bo'lmaydigan hodisa bo'lgani uchun, xalqaro hamkorlik huquqiy majburiyat darajasiga ko'tariladi.

Tadqiqotning eng muhim amaliy natijasi shundaki, xalqaro sud amaliyoti so'nggi yillarda bu sohadagi huquqiy asosni sezilarli darajada mustahkamlagan. 2025-yil 23-iyulda *Xalqaro Sud* o'zining tarixiy maslahat xulosasida davlatlarning iqlim sohasidagi majburiyatlarini faqat iqlim shartnomalaridan emas, balki xalqaro inson huquqlari huquqidan ham kelib chiqishini bir ovozdan tasdiqladi⁶. Sud

⁴ OHCHR (1966a) "International Covenant on Civil and Political Rights", 999 UNTS 171. Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights> OHCHR (1966b) "International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights", 993 UNTS 3. Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

⁵ OHCHR (2009) "Report on the Relationship Between Climate Change and Human Rights", UN Doc A/HRC/10/61. Geneva: United Nations. https://digitallibrary.un.org/record/647215/files/A_HRC_10_61-EN.pdf

⁶ International Court of Justice (2025) "Obligations of States in Respect of Climate Change", Advisory Opinion of 23 July 2025. The Hague: ICJ. <https://www.icj-cij.org/case/187/advisory-opinions>



iqlim tizimining yomonlashuvi hayot, sog'liq, yetarli turmush sharoitlarida hayot kechirish kabi huquqlardan bahramand bo'lish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytirishini va davlatlar ushbu huquqlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarga ega ekanligini alohida ta'kidladi. Bu xulosa xalqaro huquq tarixida misli ko'rilmagan, chunki birinchi marta inson huquqlari majburiyatlari iqlim harakati bilan rasmiy ravishda tenglashtirilib, davlatlar uchun aniq huquqiy oqibatlar belgilandi.

Bundan tashqari, Xalqaro Sud 2023-yilgi BMT Bosh Assambleyasining 77/276-sonli rezolyutsiyasiga asoslanib, iqlim majburiyatlarining 1,5°C li harorat maqsadi bilan chambarchas bog'liqligi va davlatlarning milliy hissa qo'shish rejalari (NDC) progressiv ravishda kuchayib borishi lozimligini ham ta'kidladi.

Bu esa iqlim siyosatini sof diplomatik ixtiyoriylikdan aniq huquqiy majburiyat sohasiga o'tkazadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari quyidagi uchta asosiy xulosaga olib keladi: iqlim o'zgarishi xalqaro inson huquqlari huquqi doirasida e'tirof etilgan huquqlarga real va o'lchanadigan zarar yetkazmoqda; mavjud shartnomaviy majburiyatlar, ayniqsa ICCPR va ICESCR, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlari kontekstida qayta talqin qilinishi va kuchaytirilishi mumkin va xalqaro sud amaliyoti, xususan 2025-yilgi Xalqaro Sud maslahat xulosasi, bu bog'liqlikni yangi huquqiy bosqichga olib chiqqan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, iqlim o'zgarishi va inson huquqlari o'rtasidagi xalqaro-huquqiy bog'liqlik abstrakt nazariy konstruktsiya emas, balki real voqelikka asoslangan va sud amaliyoti orqali tobora mustahkamlanib borilayotgan huquqiy haqiqatdir. Ammo bu haqiqatni tan olish bilan uni amalda tatbiq etish o'rtasidagi uzoq masofa hamon saqlanib qolmoqda.

Avvalo, xalqaro sud amaliyotidagi muhim yutuqlarni qayd etish lozim. 2024-yil 9-aprelda *Yevropa Inson huquqlari sudi* (ECHR) "*Verein Klima Seniorinnen Schweiz va boshqalar - Shveytsariya*" ishida tarixiy qaror qabul qildi. Sud Shveytsariya hukumati iqlim o'zgarishi bilan kurashish borasida yetarli choralar ko'rmaganligi sababli *Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasining* 8-moddasi (xususiy va oilaviy hayotga hurmat huquqi) va 6-moddasi (sudga murojaat qilish huquqi) ni buzganini bir ovozdan tasdiqladi⁷. Bu xalqaro sud tomonidan davlatning iqlim sohasidagi harakatsizligi inson huquqlarini buzishi sifatida tan olingan tarixiy birinchi holat edi. Mazkur keysdagi bu g'alaba nafaqat Shveytsariya, balki Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lgan barcha davlatlar uchun huquqiy pretsedent o'rnatdi.

Biroq bu qarorning amaliy samarasi savol ostida qolmoqda. Shveytsariya hukumati 2024-yil avgustida sudning talablarini bajarilgan deb e'lon qildi va Konvensiyaning iqlim masalasiga tatbiq etilishini "noqonuniy sud aktivizmi" sifatida qoraladi. 2025-yil mart oyida *Yevropa Kengashining*

⁷ European Court of Human Rights (2024) "*Verein KlimaSeniorinnen Schweiz and Others v. Switzerland*", Application No. 53600/20, Grand

Chamber Judgment of 9 April 2024. Strasbourg: ECtHR.



Vazirlar Qo'mitasi Shveytsariya hali ham qarorga rioya etmayotganini rasman e'lon qildi. Bu holat muhim savolni ko'taradi: xalqaro inson huquqlari organlari iqlim sohasida qanchalik samarali ijro mexanizmiga ega?

Ikkinchi muhim misol sifatida 2022-yil 23-sentyabrdagi "Daniel Billy va boshqalar - Avstraliya" ishini keltirish mumkin. *BMTning Inson Huquqlari Qo'mitasi* bu ishda Avstraliya hukumatini Torres bo'g'ozini orollarining iqlim o'zgarishi ta'siridan himoya qilish borasida o'z ijobiy majburiyatlarini bajarmagan, shu sababli ICCPRning 17-moddasi (xususiy va oilaviy hayotga aralashmaslik) hamda 27-moddasi (madaniyat huquqi) ni buzgan degan xulosaga keldi⁸. Bu birinchi marta xalqaro inson huquqlari organi davlatni iqlim sohasidagi harakatsizligi uchun javobgar deb topgan holat bo'ldi. Qo'mita Avstraliyaga zaruriy kompensatsiya to'lash, moslashish choralari kuchaytirish va mahalliy jamoalar bilan maslahatlashish majburiyatini yukladi. Biroq Avstraliya bu tavsiyalarni to'liq bajarish o'rniga, ularning bir qisminigina amalga oshirdi xolos.

Xullas, bizning fikrimizcha bu ikkala ish ham bir vaqtning o'zida ikkita haqiqatni tasdiqlaydi: birinchidan, mavjud xalqaro inson huquqlari huquqi iqlim sohasida davlatlarni javobgar qilish uchun yetarli me'yoriy asosga ega; ikkinchidan, bu me'yoriy asosni amaliy

bajarilishini ta'minlash mexanizmi hali ham jiddiy bo'shliqlarga duch kelmoqda.

Ushbu tadqiqot davomida bir qancha huquqiy va metodologik to'siqlar aniq ko'rindi. Bularning ichida eng katta muammo sababiy bog'liqlikni isbotlash masalasidir. Iqlim o'zgarishi global va umumbashariy hodisa bo'lgani uchun uni aniq bir davlatning harakati yoki harakatsizligiga bog'lab ko'rsatish texnik jihatdan nihoyatda qiyin. Masalan, "Daniel Billy - Avstraliya" ishida Avstraliya Qo'mita tomonidan qo'yilgan ayblovlar, masalan hayot huquqini (6-modda) buzilganligini rasmiy ravishda tan olmadi - chunki iqlim o'zgarishi oqibatida orol ahli hayotiga tahdidning "hozirgi va aniq" ekanligi isbotini yetarli deb topmadi. Bu sababiylik masalasi nafaqat huquqiy, balki ilmiy jihatdan ham hali to'liq hal etilmagan muammodir.

Ikkinchi muammo - ijro mexanizmlarining zaifligi. Venn ta'kidlaganidek, xalqaro inson huquqlari shartnoma organlarining qarorlari majburiy ijroga ega emas va siyosiy irodasiz ularni bajarilishini ta'minlash deyarli mumkin emas⁹. Bu holat iqlim sohasida ayniqsa og'ir namoyon bo'lmoqda, chunki katta chiqindi chiqaruvchi davlatlar ko'pincha eng kuchli siyosiy va iqtisodiy mavqega ega bo'lib, xalqaro bosimga nisbatan eng chidamli hisoblanadi.

Uchinchi muammo - hududiy cheklanishlar. ICCPR va ICESCR

⁸ UN Human Rights Committee (2022) "Daniel Billy and Others v. Australia (Torres Strait Islanders Petition)", CCPR/C/135/D/3624/2019, Decision of 23 September 2022. Geneva: United Nations. <https://climatecasechart.com/non-us-case/petition-of-torres-strait-islanders-to-the-united-nations-human-rights-committee-alleging-violations->

[stemming-from-australias-inaction-on-climate-change/](https://climatecasechart.com/non-us-case/petition-of-torres-strait-islanders-to-the-united-nations-human-rights-committee-alleging-violations-stemming-from-australias-inaction-on-climate-change/)

⁹ Venn, A. (2023) 'Rendering International Human Rights Law Fit for Purpose on Climate Change', "Human Rights Law Review", 23(1), ngac034. <https://doi.org/10.1093/hrlr/ngac034>



an'anaviy ravishda davlatlar o'z hududlaridagi aholiga nisbatan zimmasiga olgan majburiyatlarni tartibga soladi. Ammo iqlim o'zgarishi hududiy chegaralarni tan olmaydi. Tinch okeani orollarini sug'orib yuboradigan dengiz suvi ko'tarilishi ko'proq sanoatlashgan davlatlarning chiqindilari tufayli yuz bermoqda. Bu esa hududdan tashqarida majburiyatlarning bajarilishi masalasini, ya'ni *extraterritorial obligations ni* xalqaro huquqning eng munozarali yo'nalishiga aylantiradi.

Metodlar tahlili va boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish. Ushbu tadqiqotda qo'llangan huquqiy tahlil va qiyosiy metodlar iqlim-inson huquqlari bog'liqligini ikki parallel yo'nalishda - me'yoriy va amaliy o'rganish imkonini berdi. Bu yondashuv *McInerney-Lankford, Darrow va Rajamani* ishlarida qo'llanilgan yondashuv bilan bir qatorda turadi: ular ham uch o'lchamda - iqlimning huquqlarga ta'siri, iqlim siyosatining huquqlarga ta'siri va inson huquqlari doirasining iqlim siyosatiga ta'siri etishi degan tahliliy usulda olib borgan¹⁰. Ammo ushbu maqola ulardan farqli ravishda 2022-2025 yillar orasida to'plangan yangi sud amaliyotiga - jumladan, "Billy - Avstraliya", "KlimaSeniorinnen - Shveytsariya" va Xalqaro Sud maslahat xulosasiga alohida e'tibor qaratadi, bu esa tadqiqotning zamon jihatidan yangiligini ta'minlaydi.

Knox ning hamkorlik majburiyatiga asoslangan optimistik talqini real va muhim, ammo uni amalda qo'llash

davlatlarning siyosiy irodasiga bo'g'liq bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, huquqiy asosning mustahkamlanishi bilan amaliy tatbiqning yetarli darajada rivojlanmasligi o'rtasidagi tafovut iqlim-inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Parij bitimi iqlim shartnomasida inson huquqlariga birinchi rasmiy murojaat bo'lsa-da, u iqlim majburiyatlarini bajarmaslik uchun aniq javobgarlik mexanizmi o'rnatmagan¹¹. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun yangi huquqiy vositalar va siyosiy irodaning birgalikda shakllanishi talab etiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot iqlim o'zgarishi va xalqaro inson huquqlari huquqi o'rtasidagi bog'liqlikning nafaqat mavjudligini, balki bu bog'liqlikning tobora chuqurlashib, huquqiy jihatdan mustahkamlanib borayotganini ko'rsatdi. Bir paytlar alohida rivojlangan ikki tizim - iqlim huquqi va inson huquqlari huquqi bugun bir-biri bilan chambarchas o'ralishib, yangi huquqiy haqiqatni shakllantirib boryapti.

Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

Birinchi xulosa: Mavjud xalqaro inson huquqlari shartnomalari - ayniqsa ICCPR va ICESCR iqlim o'zgarishining hayot, sog'liq, oziq-ovqat, suv va madaniyat kabi fundamental huquqlarga ta'sirini huquqiy tartibga solish uchun yetarli me'yoriy asos mavjud. Bu asos yangi shartnomalar tuzilishini

¹⁰ McInerney-Lankford, S., Darrow, M. and Rajamani, L. (2011) "Human Rights and Climate Change: A Review of the International Legal Dimensions". Washington DC: World Bank Publications.

¹¹ UNFCCC (2015) "Paris Agreement", FCCC/CP/2015/10/Add.1. Paris: United Nations Framework Convention on Climate Change.



kutmasdan ham, mavjud hujjatlarni iqlim kontekstida qayta talqin qilish orqali ishlatilishi mumkin.

Ikkinchi xulosa: xalqaro sud amaliyoti so'nggi yillarda bu sohadagi huquqiy asosni sezilarli darajada kengaytirdi. *"KlimaSeniorinnen - Shveysariya"* (2024), *"Billy - Avstraliya"* (2022) va Xalqaro Sudning 2025-yilgi maslahat xulosasi birgalikda shuni tasdiqlaydi: davlatlar iqlim sohasidagi harakatsizliklari uchun inson huquqlari mexanizmlari orqali javobgar qilinishi mumkin. Bu huquqshunoslik tarixida yangi sahifadir.

Uchinchi xulosa: biroq huquqiy asosning mustahkamlanishi yetarli emas. Sababiy bog'liqlikni isbotlashdagi qiyinchiliklar, xalqaro organlar qarorlarining majburiy ijrodan mahrumligi, hududdan tashqarida majburiyatlarning cheklangan qo'llanilishi - bularning barchasi mavjud tizimda hali bartaraf etilmagan tizimli muammolar sifatida qolmoqda.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: xalqaro hamjamiyat iqlim o'zgarishidan zarar ko'rgan shaxslarga huquqiy himoya kafolatlaydigan majburiy ijro mexanizmlari bilan ta'minlangan yangi xalqaro huquqiy vositani ishlab chiqishi lozim; iqlim bo'yicha milliy hissa qo'shish rejaları (NDC) inson huquqlari me'yorlari bilan majburiy muvofiqlashtirilib, mustaqil monitoring ostiga olinishi kerak; va rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, aholisi kam chiqindi chiqarib, lekin iqlim ta'sirlaridan ko'proq aziyat chekayotgan davlatlar manfaatları xalqaro iqlim-huquq muzokaralarida markaziy o'ringa qo'yilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, iqlim adolati inson huquqlari adolatidan ajralmaydi. Xalqaro huquq bu haqiqatni tobora aniqroq tan olayotgan bo'lsa-da, amaliy tatbiq yo'lida ko'plab qadam bosish zarur. Bu yo'l - siyosiy irodasiz amalga oshmaydi.

References:

1. UNFCCC (2015) "Paris Agreement", FCCC/CP/2015/10/Add.1. Paris: United Nations Framework Convention on Climate Change. Mavjud: https://unfccc.int/sites/default/files/english_paris_agreement.pdf
2. Knox, J.H. (2009) 'Climate Change and Human Rights Law', "Virginia Journal of International Law", 50(1), pp. 163-218. Mavjud: <https://ssrn.com/abstract=1480120>
3. Rajamani, L. (2010) 'The Increasing Currency and Relevance of Rights-Based Perspectives in the International Negotiations on Climate Change', "Journal of Environmental Law", 22(3), pp. 391-429. Mavjud: <https://doi.org/10.1093/jel/eqq020>
4. OHCHR (1966a) "International Covenant on Civil and Political Rights", 999 UNTS 171. Geneva: United Nations. Mavjud: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights> OHCHR (1966b) "International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights", 993 UNTS 3. Geneva: United Nations. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>
5. OHCHR (2009) "Report on the Relationship Between Climate Change and Human Rights", UN Doc A/HRC/10/61. Geneva: United Nations. Mavjud: https://digitallibrary.un.org/record/647215/files/A_HRC_10_61-EN.pdf



6. International Court of Justice (2025) "Obligations of States in Respect of Climate Change", Advisory Opinion of 23 July 2025. The Hague: ICJ. Mavjud: <https://www.icj-cij.org/case/187/advisory-opinions>
7. European Court of Human Rights (2024) "Verein KlimaSeniorinnen Schweiz and Others v. Switzerland", Application No. 53600/20, Grand Chamber Judgment of 9 April 2024. Strasbourg: ECtHR. Mavjud: [https://hudoc.echr.coe.int/eng-press#{"itemid":\["003-7919428-11026177"\]}](https://hudoc.echr.coe.int/eng-press#{)
8. UN Human Rights Committee (2022) "Daniel Billy and Others v. Australia (Torres Strait Islanders Petition)", CCPR/C/135/D/3624/2019, Decision of 23 September 2022. Geneva: United Nations. Mavjud: <https://climatecasechart.com/non-us-case/petition-of-torres-strait-islanders-to-the-united-nations-human-rights-committee-alleging-violations-stemming-from-australias-inaction-on-climate-change/>
9. Venn, A. (2023) 'Rendering International Human Rights Law Fit for Purpose on Climate Change', "Human Rights Law Review", 23(1), ngac034. Mavjud: <https://doi.org/10.1093/hrlr/ngac034>
10. McNerney-Lankford, S., Darrow, M. and Rajamani, L. (2011) "Human Rights and Climate Change: A Review of the International Legal Dimensions". Washington DC: World Bank Publications. Mavjud: <https://ideas.repec.org/b/wbk/wbpubs/2291.html>